

Kredit karta berishning umumiy shartlari to'g'risida Ommaviy oferta

Ushbu Ommaviy ofertada "Hamkorbank" ATB tomonidan jismoniy shaxslarga masofaviy bank xizmatlari orqali kredit karta berish to'g'risidagi Shartnomaning (keyingi o'rinlarda "Oferta" deb yuritiladi) umumiy shartlari keltirilgan. Oferta kredit karta berish, unga xizmat ko'rsatish va u bo'yicha vujudga kelgan huquqiy munosabatlarni tartibga solishning umumiy shartlarini belgilaydi. Shu bilan birga, ushbu Oferta akseptlangandan va skoring tahlilining ijobiy natijasidan so'ng, mijoz kredit karta uchun maxsus shartlar - Kredit karta berishning individual shartlarini nazarda tutuvchi Kelishuvni tuzish majburiyatini oladi. Ushbu Ommaviy ofertada ko'rsatilgan harakatlarning bajarilishi Mijozning ushbu Ommaviy ofertada belgilangan shartlarda, tartibda va hajmlarda Shartnomani tuzishga roziligini bildiradi va tasdiqlaydi. Mazkur Oferta va shu Ofertaga qoidalariga asosan rasmiylashtirilgan Kelishuv birgalikda yagona shartnoma deb baxolanadi. Quyida keltirilgan Ommaviy oferta matni "Hamkorbank" ATBning masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish xohishida bo'lgan barcha jismoniy shaxslarga - O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 358, 367, 369 va 370-moddalariga muvofiq Shartnoma tuzish bo'yicha rasmiy ommaviy taklif hisoblanadi.

1. UMUMIY TUSHUNCHALAR

1.1. **Avtoto'lov** - bu Qarz oluvchining barcha kartalaridan pul mablag'larini avtomatik ravishda yechib olishni, shuningdek, Qarz oluvchining kredit kartalari va shaxsiy depozit hisobvaraqlaridan hisobdan chiqarishni ta'minlaydigan jarayon. Avtoto'lov tartibi Bank tomonidan belgilangan tartibda va muddatda kunlik jadval bo'yicha kuniga bir necha marta ishga tushiriladi. Agar Qarz oluvchining muddati o'tgan to'lovlarni to'lash uchun mablag'lari bo'lmasa, to'lovlarni to'lash uchun etarli mablag' bilan karta hisobini/joriy hisobni to'ldirish kerak.

1.2. **Avtorizatsiya** - kredit karta bilan operatsiyalarni bajarishda tovar va xizmatlarga to'lovni amalga oshirish uchun kredit karta foydalanuvchisi huquqining tasdiqlanishi.

1.3. **Emitent bank** — bu kredit karta emissiyasini amalga oshiruvchi, o'zi emissiya qilgan kredit kartalariga nisbatan mulk huquqiga ega bo'lgan, o'z nomidan ularning saqlovchilari va ekvayerlar oldida naqd pulsiz hisob-kitoblarga oid qonunchilik hujjatlari talablari asosida majburiyatlarni zimmasiga olgan, shuningdek kredit karta saqlovchilarining to'lov operatsiyalari bo'yicha avtorizatsiyalash, tranzaksiyalarni yig'ish va ularga ishlov berish funksiyalarini amalga oshiruvchi bank.

1.4. **Bank ish kuni** — O'zbekiston Respublikasidagi banklar bank operatsiyalarini o'tkazish uchun ochiq bo'lgan kun.

1.5. **Karta hisobvarag'i (KH)** — Kredit karta orqali pul mablag'larini tasarruf etish mumkin bo'lgan bank hisobvarag'i.

1.6. **"Bank tarifi"** - kredit karta bo'yicha operatsiyalarga tegishli to'lovlar va vositachilik xaqklarining barcha turlari hamda miqdorlari belgilangan amaldagi bank tarifi (www.hamkorbank.uz).

1.7. **Kredit karta bo'yicha foizsiz muddat (imtiyozli davr yoki greys period)** - qarz oluvchi kredit bo'yicha hisoblangan foizlarni to'lashdan ozod qilinadigan muddat.

1.8. **To'lovlarni qaytarish** — bank tarafidan belgilangan shaklda kredit karta foydalanuvchisining karta hisob raqamini kreditlash uchun tranzaksiyalar borasida Mijoz tarafidan amalga oshiriladigan pul mablag'larining har qanday qaytarilishi ma'nosini bildiradi.

1.9. **Ko'chirma** - kredit karta hisobraqami ma'lumotlari bo'yicha Bank tomonidan KK foydalanuvchisining so'roviga ko'ra shakllantiriladigan ko'chirma.

1.10. **To'lov sanasi** - Qarz oluvchi xarajatlarni amalga oshirgan oydan keyingi har oyning 20-kuni. Bank boshqa sanani belgilashi mumkin, bu esa Shartnomada aks ettiriladi.

1.11. **Kredit karta saqlovchisi** – Bank tomonidan emissiya qilingan hamda foydalanuvchiga mazkur Oferta asosida topshirilgan kredit kartasini, foydalanuvchi tomonidan qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan shakllarda va usullarda foydalanishga berish uchun vakolat berilgan shaxs.

1.12. **Karta ma'lumotlari** – Kartada ko'rsatilgan ma'lumotlar: karta raqami, amal qilish muddati, kredit karta foydalanuvchisi Saqlovchining ismi va familiyasi (lotincha xarflar bilan yozilgan), CVN (CVV/SVC) kodi.

1.13. **Aloqa kanali** – Qarz oluvchi va Bank o'rtasida axborot uzatish vositalaridan biri: elektron pochta (e-mail), pochta aloqasi, Internet-banking, mobil banking, masofaviy banking, USSD/SMS-xabar, messenjer xabari, telefon, faks, bankomat, POS-terminal, terminal, Internet-kiosk, Bank tomonidan belgilangan tartibda va shartlarda, Qarz oluvchining ma'lumotlari asosida uni identifikatsiya qilib foydalaniladigan boshqa internet-resurslar.

1.14. **Mijoz/Qarz oluvchi** – kredit kartaga asosan olingan summani belgilangan muddatlarda qaytarish va kredit kartadan foydalanganlik uchun foizlarni to'lash majburiyatini oladigan, doimiy daromad manbaiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari.

1.15. **Kredit karta (KK)** – bank tomonidan qo'yilgan limit doirasida istalgan maqsadlar uchun mablag' ishlatish huquqini beruvchi bank kartasi.

1.16. **Kredit limiti** - Bank tomonidan belgilangan tartibda Qarz oluvchi foydalanishi uchun taqdim etiladigan qayta tiklanuvchi kreditning maksimal miqdori.

1.17. **Minimal to'lov** – Har oyning 1-chi sanasiga, o'tgan oyning oxirgi sanasiga mavjud kredit qoldig'ining 10 foizi miqdorida Qarz oluvchiga to'lash uchun taqdim etiladigan to'lov.

1.18. **Majburiy to'lov** – to'lanishi lozim bo'lgan to'lov miqdori. Ushbu to'lov o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- Minimal to'lov miqdori;
- muddati o'tgan asosiy qarz;
- muddati o'tgan foizlar miqdori;
- joriy asosiy qarz;
- joriy foizlar;
- jarima va penyalari;
- bankning qarzni to'lash bilan bog'liq boshqa harajatlari.

1.19. **PIN-kod** — kredit karta foydalanuvchisi shaxsiy identifikatsion raqami bo'lib, u karta hisob raqamidagi pul mablag'larini boshqarish huquqini hamda mablag'larni boshqarishga kredit karta foydalanuvchisi tomonidan ruxsat berilganligini tasdiqlaydi.

1.20. **Kreditning to'liq qiymati (KTQ)** — kredit olish bilan bog'liq to'lovlarning haqqoniy, yillik va samarali hisoblashdagi foiz stavkasi hamda to'liq qiymati. Kreditning to'liq qiymati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisoblanadi. Kredit to'liq qiymati haqida batafsil ma'lumot Kelishuvda keltirilgan.

1.21. **To'lov tizimi** – emitent banklar, kredit kartalariga xizmat ko'rsatuvchi banklar, ekvayer va protsessing tashkilotlarini yagona tizimga birlashtiruvchi naqd pulsiz to'lovlarni elektron shaklda amalga oshirish uchun mo'ljallangan, huquqiy me'yorlar, me'yoriy hujjatlar, dasturiy-texnik yechimlar, shuningdek, tegishli tashkiliy-texnik infratuzilma majmuiga asoslangan va asosiy unsuri bank kartasi hisoblangan hududiy tarmoq to'lov tizimi.

1.22. **Qoidalar** – To'lov tashkiloti tomonidan emitent banklar uchun taqdim qilinadigan, ichki va xalqaro to'lovlarni tartibga soluvchi yagona umumiy qoidalar jamlanmasi.

1.23. **Protsessing tashkiloti** — to'lov tashkiloti a'zolari o'rtasida axborotni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish, shuningdek, to'lov tashkiloti a'zolari tomonidan -amalga

oshiriladigan emissiya va (yoki) ekvayringga texnik xizmat ko'rsatishni ta'minlovchi yuridik shaxs. Yagona umumrespublika protsessing markazi, Milliy banklararo protsessing markazi va boshqa xalqaro protsessing markazlari.

1.24. **Ommaviy oferta (Oferta)** – jismoniy shaxslarga kredit karta berish, unga xizmat ko'rsatish va u bo'yicha vujudga kelgan huquqiy munosabatlarni tartibga solishning umumiy shartlarini belgilovchi Shartnoma loyihasi.

1.25. **"SMS xizmati"** — karta hisobvarag'idagi o'zgarishlar va boshqa holatlar bo'yicha mijozning mobil telefoniga yuboriladigan xabarlar xizmati.

1.26. **Kredit karta berishning individual shartlarini belgilovchi Kelishuv (matnda "Kelishuv")** – ushbu oferta asosida tuziladigan alohida bitim. Individual shartlar kredit limiti miqdorini belgilaydi, shuningdek, tomonlarning kredit karta shartlari va parametrlari sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

1.27. **Ssuda hisobvarag'i** – kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun kredit karta foydalanuvchisining nomiga ochilgan hisobvara.

1.28. **Stop-list** — bloklangan yoki bank tarafidan hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish vaqtincha to'xtatib turilgan yoki butunlay to'xtatilgan bank kartalari ro'yxati.

1.29. **Texnik overdraft** - (kredit limitidan oshib ketadigan qarz) - to'lov talabnomasini taqdim etish orqali tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirishda kredit limitidan oshib ketadigan summa.

1.30. **Tranzaksiya** — kredit karta saqllovchisi tarafidan amalga oshiriladigan, uning bankdagi hisobvarag'i debetlanishiga olib keladigan har qanday operatsiyalar.

1.31. **To'lov tashkiloti a'zosi** — tegishli to'lov tashkiloti bilan shartnomaga asosan kredit kartasi emissiyasi va (yoki) ekvayringini amalga oshiruvchi bank.

1.32. **Emissiya** — Kredit kartalarini foydalanuvchiga vaqtinchalik foydalanishga berish orqali muomalaga chiqarish.

1.33. **Ekvayer** — kredit karta orqali amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha tovarlar (ishlar bajaruvchi, xizmatlar ko'rsatuvchi) sotuvchilari bilan hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi, shuningdek kredit karta saqllovchisiga bevosita kassa yoki bankomat orqali naqd pul beruvchi bank.

1.34. **Bank tarmoqlari** - Bankning O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan tarkibiy tuzilmalar, shu jumladan bank xizmatlari ofislari/ Boshqarmalar/Bo'linmalar.

1.35. **CVN (CVV/CVC) kod** — bank kartasining maxfiy raqami bo'lib, internet orqali to'lovlarni amalga oshirishda ishlatiladi.

2. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Ushbu Ommaviy ofertaga muvofiq kredit karta olishni xohlovchi jismoniy shaxslarga belgilangan muvofiqlik mezonlari, qarz berish muddatlari, boshqa to'lovlar, shuningdek boshqa shartlar potensial Qarz oluvchilar e'tiboriga tegishli axborotni Bank tanloviga ko'ra ommaviy joylarda (Bankning Internet tarmog'idagi rasmiy veb-saytida: www.hamkorbank.uz, Internet-bankda, mobil ilovada, ommaviy axborot vositalarida va h.k.) joylashtirish yo'li bilan yetkaziladi.

2.2. Qarz oluvchi ushbu Oferta shartlariga rozi bo'lgan taqdirda, bankning "Hamkor" mobil ilovasida (keyingi o'rinlarda – "Mobil ilova") maxsus tugma orqali, kredit karta berish bo'yicha ushbu Ofertani uyali aloqa raqamiga yuborilgan SMS kodni kiritish orqali akseptlaydi. Mazkur aksept Qarz oluvchi tomonidan ushbu Oferta shartlarini to'liq va o'zgarishsiz qabul qilganligini anglatadi.

2.3. Oferta akseptlanganidan so'ng Qarz oluvchi kredit karta olish uchun mazkur mobil ilova orqali elektron shaklda ariza bilan murojaat qiladi.

2.4. Bank tomonidan Qarz oluvchining arizasi skoring tahlillariga asosan ma'qullangan taqdirda, Bank va Qarz oluvchi o'rtasida kredit karta berishning individual shartlarini belgilovchi Kelishuv imzolanaadi. Kelishuvni imzolash ushbu Oferta bilan birga kredit karta mahsulotini taqdim etish, unga xizmat ko'rsatish va bu bo'yicha vujudga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga solish yuzasidan yagona Shartnoma deb baholanadi.

2.5. Kredit karta berishning individual shartlari Qarz oluvchi tomonidan har bir kredit kartani olishidan oldin alohida Kelishuv orqali belgilanadi.

2.6. Qarz oluvchi tomonidan ushbu Ommaviy oferta va Kelishuv akseptlangandan so'ng, taraflar o'rtasida Shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

2.7. Bank kredit karta foydalanuvchisiga vaqtincha foydalanishga beradi va karta yordamida o'zaro hisob-kitoblar, Oferta va Kelishuvda ko'rsatilgan xizmatlarni ko'rsatadi.

2.8. Qarz oluvchi uning kreditga layoqatligi va boshqa ma'lumotlarini baholaydigan Bankning skoring modeli bankning tijorat siri ekanligiga va maxfiy hisoblanishiga va Bank quyidagi holatlarda, sabablarini ko'rsatmagan holda kredit berishni rad etishga haqli ekanligiga o'z roziligini bildiradi:

- Qarz oluvchi va u tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar tahlil qilishning barcha tegishli bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tmaganligi va/yoki;
- muammoli kreditlar, ular bo'yicha muddati o'tgan joriy qarzlar mavjud bo'lganda;
- Salbiy kredit tarixi;
- qarz yuki ko'rsatkichi bo'yicha normativ talablarga mos kelmaganda;
- Mijoz joylashgan manzilda Bank xizmatlari ko'rsatishning texnik jihatdan imkoni bo'lmaganda, shuningdek;
- Qonunchilik hujjatlarida yoki bankning ichki me'yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda.

3. KREDIT KARTA AJRATISH SHARTLARI

3.1. Kredit kartasi Shartnoma tuzilgan paytdan boshlab 3 (uch) ish kuni mobaynida, ushbu Ofertaning shartlariga muvofiq Bank tarifidan ko'zda tutilgan summalar to'lanishi sharti bilan emissiya qilinadi.

3.2. Kredit karta Foydalanuvchisi mazkur Ofertani to'liq xajmda qabul qilib, kredit karta olish bo'yicha tegishli ariza bilan murojaat qilishligi zarur hollarda ssuda hisobraqamini ochishga roziligini bildirgan hisoblanadi.

3.3. KH bo'yicha ma'lum davrga oid ko'chirma, faqat kredit karta foydalanuvchisining arizasiga binoan taqdim qilinadi.

3.4. KK To'lov tizimi tomonidan o'rnatilgan, lekin 4 (to'rt) yildan oshmagan muddatga beriladi.

3.5. KHni bloklanishi KH bo'yicha operatsiya o'tkazilishini to'xtatishga olib keladi hamda ushbu KH bo'yicha ochilgan barcha kredit kartalardan foydalanish huquqini bekor qilishga olib keladi.

Biroq, QHni bloklanishi, Qarz oluvchining Bank oldidagi majburiyatlaridan ozod qilmaydi.

3.6. Kredit karta foydalanuvchisi ushbu Oferta shartlariga muvofiq Bank oldidagi majburiyatlari yuzasidan, shuningdek Qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda kredit karta foydalanuvchisi nomiga rasmiylashtirilgan har qanday banklardagi barcha KHLar orqali pul mablag'larini yechib olishga roziligini bildiradi. Bank tomonidan kredit kartasi va KH yopish to'g'risida ariza qabul qilingandan so'ng bank to'lov topshiriqnomasi bo'yicha kelib tushgan pul mablag'larini karta hisobraqamiga kirim qilmaydi. Bunday to'lovlar bank tomonidan to'lovchining ma'lumotlari bo'yicha qaytariladi.

3.7. Emissiya qilingan kredit kartani mijoz bank ofisiga tashrif buyurgan holda yoki bankning mas'ul xodimi orqali yetkazib berilishini tanlash huquqiga ega.

3.8. Kredit kartasi emissiya qilingan sanadan boshlab KK foydalanuvchisi tomonidan bankdan 3 (oy) mobaynida olib ketilmagan taqdirda, KK yo'q qilinadi va bank tarifi asosida olingan ustama xaqi KK foydalanuvchisiga qaytarilmaydi.

3.9. KKni qayta chiqarish KK foydalanuvchisining arizasi asosida KK foydalanuvchisi tomonidan bankdan olib ketilmagan KKning muddati tugagunga qadar bank tomonidan yangi muddatga qayta chiqarilishi mumkin.

3.10. KKni yo'qotish/sindirish, KKning mexanik shikastlanishi, KK foydalanuvchisining KKda ko'rsatilgan familiyasi va/yoki ismi o'zgarishi va muddati tugaguncha boshqa sabablarga ko'ra KKning qayta chiqarilishi KK foydalanuvchisining arizasi asosida Bank tariflarida ko'rsatilgan tegishli ustama haqi olinishi sharti bilan amalga oshiriladi.

3.11. Oferta shartlariga muvofiq, KHga kirim qilingan pul mablag'laridan haq olinishi mumkin.

3.12. KK foydalanuvchisi KKni yo'qolganligi yoki undan ruxsatsiz foydalanilganligi fakti aniqlanishiga darhol bu haqda Bankka 0 800 1 200 200 yoki 1256 (O'zbekiston bo'ylab pullik) qisqa raqamli telefon orqali bog'lanib xabar beradi va o'zining shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport/ID karta, yoki kodli so'zni taqdim etish) orqali tegishli ma'lumotlarni taqdim qiladi. Bunda KK yo'qolganligi yoki undan ruxsatsiz foydalanilganligi to'g'risida xabarnoma olinganidan keyin Bank darhol KKni blok xolatiga o'tkazadi.

Kredit kartani yo'qotish yoki ruxsatsiz foydalanish faktlari aniqlansa, kredit karta foydalanuvchisi "Hamkormobile" ilovasi orqali kredit kartani mustaqil ravishda bloklashi yoki Bank veb-saytiga, shuningdek, aloqa markaziga murojaat qilishi mumkin.

3.13. KK foydalanuvchisi to'lov xizmatlari haqidagi axborotni hamda muzkur Shartnoma yuzasidan vujudga kelishi mumkin bo'lgan masalalar yuzasidan tunu kun mobaynida 0 800 1 200 200 yoki 1256 (O'zbekiston bo'ylab pullik) raqam orqali olishi mumkin.

3.14. KK foydalanuvchisi KKga tegishli bo'lgan rekvizitlarni, shu jumladan 16 raqamdan iborat bo'lgan Karta raqami amal qilish muddati (xalqaro to'lov tizimlariga hos bo'lgan CVN (CVV/SVC) kodlar) elektron to'lov tizimlari orqali KK foydalanuvchisi ko'rsatgan aloqa vositasiga yuborilgan maxfiy tasdiqlash kodini (shu jumladan har qanday uchinchi shaxslar tomonidan KK foydalanuvchisining aloqa qurulmasiga kelib tushgan tasdiqlash kodlari) hech kimga oshkor qilmasligi hamda aloqa qurulmasini uchinchi shaxslarga topshirganida KKdan foydalanish huquqini beruvchi mobil ilovalarni maxfiy kod bilan himoyalash choralarini ko'rishi zarur.

3.15. KK yuzasidan amalga oshiriladigan to'lovlar uch ish kunidan yigirma besh ish kuniga qadar bo'lgan muddat ichida to'lov tizimlarida amalga oshiriladi (Clearing).

3.16. KK foydalanuvchisi mazkur Ofertani to'liq xajmda qabul qilish (aksept) bilan birga Bank tomonidan bir taraflama tariflarga o'zgartirish kiritib borilishiga roziligini bildiradi.

4. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. Qarz oluvchining majburiyatlari:

4.1.1. Kredit karta bo'yicha hisoblangan foizlar va asosiy qarzni mazkur shartnomada nazarda tutilgan muddatlarda, hajmda va tartibda to'lash.

4.1.2. KKdan mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq foydalanish.

4.1.3. Qarz oluvchi va uning ish beruvchisi o'rtasidagi mehnat munosabatlari bekor bo'lgan taqdirda, Bankka bu haqida keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda xabar berish.

4.1.4. Oylik ish haqi miqdori kamaytirilganda, Qarz oluvchi bu haqida bankni besh ish kuni ichida kelishilgan aloqa kanallari orqali xabardor qilishi shart.

4.1.5. Qarz oluvchi Bankdan ma'lumot olish uchun Bankka o'zining yashash manzilini, uyali telefon raqamini (yoki raqamlarini), uy telefon raqamini, ish joyi telefon raqamini taqdim etishni o'z zimmasiga oladi. Bank tomonidan yuqoridagi manzillar orqali olingan har qanday ma'lumot qonuniy kuchga ega deb baholanadi.

4.1.6. O'zining ish joyi, yashash joyi, pasport ma'lumotlari, familiya-ismi, uyali va/yoki uy telefon raqami o'zgarganida, karta yo'qotilgan yoki o'g'irlangan taqdirda va mazkur shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan boshqa holatlar to'g'risida yozma shaklda yoki Qarz oluvchi uchun maqbul bo'lgan boshqa aloqa kanallari orqali 5 (besh) kun ichida Bankka xabar berish.

4.1.7. KK PIN-kodini belgilash, almashtirish va uni hech kimga ma'lum qilmaslik.

4.1.8. Agar PIN-kod uch marta noto'g'ri kiritilgan bo'lsa, KK foydalanuvchisi darhol emitentga ariza bilan murojaat qilishi va o'zining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini taqdim etish.

4.1.9. Mazkur Shartnoma o'z kuchini yo'qotgandan keyin KKni hech qanday shartlarsiz bankka qaytarish.

4.1.10. Bank xizmat haqlarini belgilangan tariflar doirasida to'lash.

4.1.11. Emitent bank hamda to'lov tizimi dasturlaridagi texnik nosozliklar va xatoliklar natijasida KKda ortiqcha mablag'lar (texnik overdraft) hosil bo'lib qolsa, ushbu mablag'larni emitent bankka qaytarish.

4.1.12. O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan tegishli hujjatlarni bankning talabiga binoan taqdim etish;

4.1.13. Bank kartalaridan faqat shaxsiy maqsadlarda foydalanish va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq amaliyotlarni bajarmaslik, shuningdek uchinchi shaxslarga bunday foydalanishga imkoniyat bermaslik. Noqonuniy moliyaviy operatsiyalar va noqonuniy savdo faoliyati bilan shug'ullanmaslik. Amaldagi qonunchilikda taqiqlangan tovar va hizmatlar uchun to'lovlarda bank kartasidan foydalanmaslik va boshqa holatlar.

4.2. Bank majburiyatlari:

4.2.1. Qarz oluvchi nomiga hisob-kitob qilish uchun ssuda va boshqa hisobvaraqlar ochish.

4.2.2. Qarz oluvchiga kredit kartasi faol va soz holatda bo'lgan taqdirda Kelishuvda belgilangan miqdorda va shartlarda pul mablag'lari taqdim etish.

4.2.3. Qarz oluvchini kreditni muddatidan oldin undirilishining sabablari to'g'risida xabardor qilish.

4.2.4. Qarz oluvchining huquq va majburiyatlari to'g'risida, shu jumladan kredit berish bilan bog'liq barcha xarajatlar haqida Qarz oluvchiga ishonchli hamda to'liq axborotni taqdim qilish.

4.2.5. Qarz oluvchining kredit layoqatliligi pasaygan yoki to'lov intizomiga amal qilinmagani aniqlangan taqdirda, kredit limitini kamaytirilganligi / to'xtatilganligi haqida uning sabablarini ko'rsatgan holda xabarnoma yuborish.

4.2.6. Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchidan majburiyatlari bajarilmasligi sabablari, holati, muddati, summolari, tarkibi haqida so'rash, shuningdek majburiyatlar buzilgani uchun neustoyka (jarima, penya) qo'llanishi natijasida xarajatlar summasi ortishi ehtimoli haqida ogohlantirish.

4.2.7. Qarz oluvchini ushbu shartnoma bo'yicha muddati o'tgan qarzlarni qaytarish bo'yicha majburiyatlari holati, muddatlari, miqdori, tarkibi va bajarilmasligi oqibatlarini to'g'risida xabardor qilish, Qarz oluvchidan ushbu muddati o'tgan qarzlarning yuzaga kelish sabablarini aniqlash.

4.2.8. Agar Qarz oluvchi kredit karta shartnomasi bo'yicha qarzning asosiy summasini to'lash va(yoki) shartnoma foizlarni to'lash muddatlarini buzgan bo'lsa, bank, shartnomada ko'rsatilganidek, qarzdorga nizolarni sudgacha hal qilish to'g'risidagi talabini qo'yadi.

4.2.9. Kredit karta shartnomasi bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganda, bank qarz oluvchi zimmasidagi qarz yuki yanada oshib ketishining oldini olish maqsadida muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelgan sanadan boshlab 7 (yetti) kalendar kuni davomida iste'molchi bilan shartnomada kelishilgan har qanday aloqa bog'lash usullaridan, shu jumladan elektron aloqa vositalaridan yoki qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usullardan foydalanib, iste'molchiga muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida xabardor qiladi.

4.2.10. KK foydalanuvchisining KHni KK bo'yicha amalga oshirilgan barcha tranzaksiyalari bo'yicha tegishli buxgalteriya amaliyotlarini amalga oshiradi.

4.2.11. Tegishli tarzda rasmiylashtirilgan to'lov hujjatlari olingan kundan e'tiboran bir bank ish kuni ichida KK foydalanuvchisining foydasiga tushgan pul mablag'larini KHga kirim qilish.

4.2.12. KK foydalanuvchisining KHDan tranzaksiyalar bo'yicha bir ish kuni mobaynida to'lovlarni olish va hisobvaraq bo'yicha ko'chirmalarda ularni aks ettirish.

4.2.13. KK foydalanuvchisidan KK yo'qolganligi yoki o'g'irlanganligi to'g'risida yozma/yoki og'zaki murojaat olingan taqdirda, KKdan foydalangan holda operatsiyalarning amalga oshirilishini to'xtatib qo'yish choralari ko'rish.

4.2.14. KK foydalanuvchisiga KKga xizmat ko'rsatish bo'yicha undiriladigan vositachilik haqining miqdori uni undirish tartibi to'g'risida xabardor qilish.

4.2.15. Bank o'z tariflariga o'zgartirish kiritish kuchga kirishidan kamida o'n kun oldin o'zgartirishlarni bankning «www.hamkorbank.uz» saytida e'lon qilib borish.

4.2.16. Bank tomonidan KK bo'yicha amaliyotlar to'xtatib qo'yilganda, bank amaliyot to'xtatilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda KK bo'yicha amaliyotlar to'htatilganligi va uning sabablari yuzasidan xabarnoma (ma'lumotnoma) yuboradi. Xabarnoma bank kartasi foydalanuvchisining uyali aloqa raqamiga SMS-shaklida yuboriladi. Bunda, Qarz oluvchining uyali aloqa vositasi yoki uning telefon raqami o'zgarib, bu haqda Bankni habardor qilmagan taqdirda, xabarnoma yuborilib, Qarz oluvchi ogohlantirilgan hisoblanadi hamda bu holatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlar bo'yicha Bank javobgar bo'lmaydi.

5. TOMONLARNING HUQUQLARI

5.1. Qarz oluvchining huquqlari:

5.1.1. Kredit karta olish bo'yicha Qonunchilik va Bankning ichki me'yoriy hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlar haqida to'liq va ishonchli ma'lumotlarni olish.

5.1.2. Kredit kartadan foydalanish to'liq yoki qisman rad etish, bunda bankni uch ish kun ichida xabardor qilish.

5.1.3. Kredit kartadan foydalanganligi uchun hisoblangan asosiy va foiz qarzdorliklarni muddatidan oldin to'liq yoki qisman qaytarish.

5.1.4. Bankdan majburiyatlarning o'z vaqtida va lozim darajada bajarilishini talab qilish, majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararlarining o'rnini qoplashni talab qilish.

5.1.5. O'z huquq va majburiyatlari to'g'risida, shu jumladan ushbu shartnoma asosida kredit karta olish bilan bog'liq xarajatlar haqida to'liq va ishonchli ma'lumot olish.

5.1.6. Kredit mablag'laridan shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalanish.

5.1.7. Karta hisobvarag'ida mavjud qoldiqni to'ldirib borish.

5.1.8. Bankdan karta hisobvarag'idan ko'chirmani olish. Ko'chirmada karta hisobvarag'i orqali amalga oshirilgan barcha operatsiyalar aks ettiriladi.

5.1.9. Qarz oluvchi ushbu Shartnoma bo'yicha Bank tomonidan taklif etilayotgan quyidagi turdagi operatsiyalarni amalga oshirish uchun Kredit kartasidan foydalanishi mumkin:

- savdo terminali orqali tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish;
- mobil ilova orqali tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish;
- Internet orqali to'lovlarni amalga oshirish;
- bankomatlardan naqd pul yechib olish;
- kartaga pul o'tkazish;
- mobil ilova orqali konvertatsiya qilish;
- mobil ilova orqali VISA Direct xizmatidan foydalanish;
- mavjud operatsiyalar ro'yxati to'ldirilishi mumkin, ular haqida Qarz oluvchi mumkin bo'lgan aloqa kanallari orqali xabardor qilinadi.

5.1.10. Mazkur Ofertaning qoidalarida ko'zda tutilgan tartibda Bankka kartani bloklash va blokdan chiqarish to'g'risida yozma /yoki og'zaki tarzda murojaat qilish.

5.2. Bankning huquqlari:

5.2.1. Qarz oluvchidan ushbu shartnoma asosida kredit karta berish va ushbu shartnoma majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni (zarur bo'lganda) talab qilish.

5.2.2. Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligiga shubha tug'ilganda, Bank ushbu ma'lumotlarning to'g'riligini uning ish joyi, daromad manbai va daromad miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni qarz oluvchining ish joyidan telefon qo'ng'irog'i yoki yozma so'rov orqali bank siri to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilmagan holda umumiy ma'lumot sifatida tekshirishga haqli.

5.2.3. Qarz oluvchi Bank bilan bog'langanda u bilan olib borilgan muzokaralarning ovozlarini qayd qilib borish, shuningdek, Qarz oluvchiga xizmat ko'rsatish sifatini nazorat qilish hamda yaxshilash maqsadida amalga oshirilgan qo'ng'iroqlarni/muzokaralarni biror bir holat vaziyatni tasdiqlash uchun foydalanish.

5.2.4. Qarz oluvchi shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, bank o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun mazkur shartnoma va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralarni ko'rishga, shu jumladan mazkur shartnoma va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qarz oluvchining mulki va mulkiy huquqlarini hisobga olib majburiy tartibda undirib olishga haqli.

5.2.5. Qarz oluvchining har qanday joriy va muddati o'tgan majburiyatlarini (qarzlarni) to'lash uchun mablag'larni (qonunchilik hujjatlariga muvofiq undirib bo'lmaydigan pul mablag'lari bundan mustasno) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq qarz oluvchining rozilgisiz (akseptsiz tartibda) quyidagicha hisobdan chiqarish/undirib olish/talab qilish:

a) Qarz oluvchining har qanday banklarda va boshqa moliya muassasalaridagi hisobvaraqlariga akseptsiz to'lov talablarini qo'yish;

b) Qarz oluvchining har qanday tijorat banklaridagi va/yoki alohida bank operatsiyalarini amalga oshiruvchi tashkilotlaridagi (bank kartasini) bank hisobvaraqlarini to'g'ridan-to'g'ri debetlash yo'li bilan.

5.2.6. Bank 5.2.4, 5.2.5-bandlarda ko'rsatilgan choralarni qo'llash va/yoki shartnoma bo'yicha boshqa majburiyatlar bajarilmaganligi yoki bajarmaslik xavfi yuzaga kelgan taqdirda ushbu shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga haqli, jumladan:

a) agar Qarz oluvchida kreditning keyingi to'lovi uchun mablag' bo'lmasa/yetarli bo'lmasa va ularni olish istiqbollari bo'lmasa;

b) shartnoma tuzish jarayonida yoki kredit operatsiyalarini amalga oshirishda qarz oluvchi tomonidan noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilganligi fakti aniqlanganda;

c) agar Qarz oluvchi sud jarayoniga jalb qilingan bo'lsa va/yoki Qarz oluvchining mol-mulki va/yoki uning hisobvaraqlari xatlangan yoki ularga taqiq qo'yilgan bo'lsa (yoki shunday holatlarning tahdidi mavjud bo'lsa);

d) Qarz oluvchining psixonevrologik dispanserlarga, psixiatriya klinikalariga, giyohvandlik yoki alkogolga qaramlikni davolash klinikalariga joylashtirilganligi to'g'risida ma'lumot olinganda;

e) Bank fikriga ko'ra, Qarz oluvchining to'lov qobiliyatiga va uning shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'g'ri bajarish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa hollarda qarz oluvchining qarz yuki ortib ketishining oldini olish maqsadida;

f) kreditni o'z vaqtida to'lashga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan obyektiv va subyektiv vaziyatlar yuzaga kelganda.

5.2.7. Agar Foydalanuvchi/KK egasining identifikatori shubha tug'dirsa yoki KK yordamida amalga oshirilgan operatsiyalar qonunga zid bo'lsa yoki shaxsiy identifikatsiyani talab qilsa, xizmat ko'rsatishni rad etish.

5.2.8. Bank Qarz oluvchining barcha banklardagi barcha hisobvaraqlaridan, shuningdek, bankning ushbu shartnoma bo'yicha o'z talablarini qondirishi uchun zarur bo'lgan pul mablag'larini akseptsiz va shubhasiz hisobdan chiqarishga haqli, Qarz oluvchi ushbu bilan Bankga hisobdan chiqarish huquqini beradi va kelajakda hech qanday da'vo qilmaydi. Shu munosabat bilan Qarz oluvchi Bankka qarz oluvchining O'zbekiston Respublikasining istalgan banklarida ochilgan barcha hisobvaraqlari va bank kartalaridan Bankga to'lanishi lozim bo'lgan summalar bo'yicha avtomatik to'lovni amalga oshirishga ko'rsatma, rozilik va vakolat beradi. Avtoto'lov xizmati Bank tomonidan Qarz oluvchi kredit olgan paytdan boshlab faollashtiriladi va Qarz oluvchi bankdan avtoto'lov xizmatini ixtiyoriy ravishda olishiga rozilik bildiradi va tasdiqlaydi.

5.2.9. KKdan ushbu shartnoma shartlariga zid ravishda foydalanilganda karta hisobvarag'ini yopib qo'yish (KKni bloklash).

5.2.10. O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasiga oid me'yoriy hujjatlarga muvofiq KK foydalanuvchisini lozim darajada tekshirish va operatsiyaga doir tegishli hujjatlarni talab qilib olish hamda talab qilingan hujjatlar va ma'lumotlar mijoz tomonidan taqdim etilmagan taqdirda mijoz bilan tadbirkorlik munosabatlariga kirishishni yoki mijoz operatsiyalarini amalga oshirishni rad etish.

5.2.11. KKdan foydalangan holda operatsiyalar yoki KH bo'yicha operatsiyalar o'tkazilishini istalgan vaqtda quyidagi shartlar mavjud bo'lgan taqdirda to'xtatib turilishi (bloklanishi) yoki bekor qilinishi mumkin:

- KK Foydalanuvchisining yozma murojaati bo'yicha;
- Saqlovchi tomonidan mazkur Shartnoma yoki Markaziy bankning №2886-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Qoidalar (<https://lex.uz/docs/3212192>) shartlari buzilishi holatida;
- KH bo'yicha operatsiyalar o'tkazilishi to'xtatilgan holda;
- Mazkur shartnomaning 4.1.13.-bandi bajarilmaganida va qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa hollarda.

5.2.12. Quyidagi shartlar bo'lganda KH va KK yopilishi mumkin:

- shartnoma yoki Qoida shartlari buzilishi holatida;
- KH yopilishi holatida;
- bir yil davomida KHning uzluksiz foydalanilmasligi yoki KH bo'yicha tranzaksiya o'tkazilmasligida;
- qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa hollarda.

5.2.13. KK foydalanuvchisi tarafidan ushbu shartnoma shartlarining buzilishi natijasida amalga oshirilgan barcha harajatlarni KK foydalanuvchisidan undirib olish.

5.2.14. Kreditning o'z vaqtida qaytarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan vaziyat yuzaga kelgan hollarda, Bank xabardor qilish tartibini qo'llaydi, ya'ni mazkur

shartnomaning 10.5-bandida ko'rsatilgan usullardan foydalangan holda Qarz oluvchiga qarzini to'lash bo'yicha yozma da'vo/talabnoma yuboradi.

5.2.15. KK ga ko'rsatiladigan xizmat uchun bank xizmatlari tariflarini ishlab chiqish, qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish. Bu haqdagi ma'lumotlarni «www.hamkorbank.uz» veb-sayti orqali e'lon qilish.

5.2.16. Mijozning KK orqali naqd pul olishida belgilangan tarif asosida xizmat haqi olish.

5.2.17. Mijozning karta hisobvarag'idan naqd pulsiz o'tkazmalar, shu jumladan boshqa Bank tarmoqlaridan va/yoki Bank tarmoqlariga mablag' o'tkazilganda, qo'shimcha xizmat turlaridan foydalanganda belgilangan tarif asosida xizmat haqi olish.

5.2.18. Mijozning karta hisobvarag'ini to'ldirishda (naqd pulda, ish haqi hisobidan, omonat hisobvarag'idan, dividend, sug'urta, ijara va boshqa mablag'lar hisobidan) belgilangan bank tariflari asosida xizmat haqi olish.

5.2.19. Bankomatlar, kassalar, pul mablag'larini echib olish mumkin bo'lgan uskunalar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida kredit kartadan pul mablag'larini yechib olishda belgilangan bank tariflari bo'yicha xizmat haqini olish.

5.2.20. Tovar va xizmatlar uchun, shu jumladan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida kredit karta orqali naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirishda belgilangan bank tariflari bo'yicha xizmat ko'rsatish komissiyalarini olish.

5.2.21. Mijoz tarafidan KK yo'qotilgan, shikastlangan yoki yaroqsiz holatga keltirilganda, shuningdek amal qilish muddati tugaganda almashtirib berilayotganda belgilangan tarifga asosan xizmat haqi olish.

5.2.22. KK foydalanuvchisi tarafidan shartnoma shartlari buzilganda hamda KK foydalanuvchisi o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, KKning harakatini to'xtatib qo'yish.

5.2.23. Emitent bank hamda to'lov tizimi dasturlaridagi texnik nosozliklar va xatoliklar natijasida KKda ortiqcha mablag'lar hosil bo'lib qolsa, ushbu mablag'larni KK hisobvarag'idan(KK dan) ushlab qolish.

5.2.24. O'zbekiston Respublikasidan tashqarida KK operatsiyalari limitini belgilash.

5.2.25. KK foydalanuvchisining KHda bir yil (365 kun) davomida hech qanday operatsiyalar amalga oshirilmagan taqdirda Bank KH pul mablag'larini harakatsiz omonat hisobvarag'iga o'tkazish.

5.2.26. Mijoz tomonidan masofaviy xizmatlardan foydalangan holda amalga oshirilgan shubhali operatsiyalar aniqlangan taqdirda, mijoz amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligi to'g'risida yozma tushuntirish bergunga qadar, mijozga oferta shartnomasi bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni to'xtatib turish yoki rad etish.

5.2.27. Agar KK Foydalanuvchisining/Saqlovchisining shaxsi gumon tug'dirsa yoki KKdan foydalangan holda amalga oshirilgan operatsiyalar qonunchilikka zid bo'lsa yoki shaxsni identifikatsiyalashni talab etsa xizmat ko'rsatishni rad etish.

5.2.28. O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va qurol-yarog' tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi me'yoriy hujjatlariga muvofiq mijozni lozim darajada tekshirish va mijoz operatsiyalarini amalga oshirish uchun tegishli hujjatlarni talab qilish va olish.

5.2.29. O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasidagi normativ hujjatlariga muvofiq belgilangan talab qilingan hujjatlar va ma'lumotlar mijoz tomonidan taqdim etilmagan taqdirda mijoz bilan tadbirkorlik munosabatlariga kirishishni yoki mijoz operatsiyalarini amalga oshirishni rad etish.

5.2.30. Mijoz tomonidan shartnoma talablari buzilgan taqdirda bank kartasini bloklab qo'yish.

5.2.31. Mijoz tomonidan shartnoma talablari buzilganligi to'g'risida shubha paydo bo'lganda, shartnoma talablari buzilganligiga aniqlik kiritilgunga qadar bank kartansii vaqtincha bloklab qo'yish.

5.2.32. Bank kartalari bo'yicha milliy va xalqaro to'lov tizimlarining emissiya tartibi o'zgargan taqdirda shartnomaga bir tomonlama o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.

5.2.33. Mijozni ushbu shartnomada ko'rsatilgan manzil (pochta manzili) yoki manzili bo'yicha o'rganish, shu jumladan masofaviy xizmatlardan foydalangan holda shubhali operatsiyalarni amalga oshirishda shubha tug'ilganda ushbu shartnomada ko'rsatilgan shaxs tomonidan bevosita operatsiyani amalga oshirish jarayonini o'rganish.

5.2.34. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan bank hisobvaraqlarni ochish va ulardan foydalanish tartibi o'zgargan taqdirda shartnomaga bir tomonlama o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.

6. KREDIT KARTA BERISH TARTIBI

6.1. Kredit karta mablag'i Qarz oluvchining nomiga emissiya qilingan kredit bank kartasiga ssuda hisobvarag'idan, qayta tiklanadigan kredit liniyasi doirasida pul ko'chirish yo'li bilan ajratiladi.

7. XISOB-KITOB VA TO'LOV TARTIBI

7.1. Kredit karta bo'yicha maksimal limit miqdori 50 000 000 (Ellik million) so'm 00 tiyinni tashkil qiladi.

7.2. Kredit karta muddati: 4 (to'rt) yil. Bunda, kredit limiti 37-oydan boshlab oxirgi 12 (o'n ikki) oy davomida har oy teng ulushlarda kamayib boradi va to'liq so'ndiriladi. Agar to'lash sanasida qarzning qoldig'i pasaytirilgan kredit limiti miqdoridan oshsa, farq Qarz oluvchi tomonidan to'lanishi kerak bo'lgan to'lovga qo'shiladi. Bank kredit karta uchun Shartnomada ko'rsatilgan boshqa shartlarni qo'llash huquqiga ega.

7.3. Har oylik minimal to'lov: kalendar oyi yakuni bo'yicha kredit karta qoldig'ining 10 foizi miqdorida hisoblanadi va to'lov kuniga qadar so'ndirilishi lozim. To'lov kuni (oyning 20-kuni)ga qadar to'lanmagan minimal to'lov summasi muddati o'tgan deb hisoblanadi. Bank Shartnomada ko'rsatilgan boshqa minimal to'lov miqdorini qo'llash huquqiga ega.

7.4. Har oylik foiz to'lovi: kalendar oyi yakuni bo'yicha hisoblanadi va to'lov kuniga qadar so'ndirilishi lozim. Bunda, kredit karta bo'yicha foizlar kunlik va har oyning mavjud bo'lgan kunlar soni bo'yicha nol qoldiq vujudga kelguniga qadar hisoblanadi va 7.8.-bandda keltirilgan ketma-ketlikda so'ndiriladi. Foiz stavkasi o'zgarmas va kelishuvda ko'rsatiladi.

7.5. Har hisob oyida foydalanilgan kredit mablag'lari keyingi oyning 20-sanasiga qadar to'liq so'ndirilgan taqdirda, hisob oyi uchun foizlar bo'yicha foizsiz muddat beriladi.

7.6. Bank tomonidan foizsiz muddat taqdim etish to'xtatilgan taqdirda, Qarz oluvchi bu to'g'risida to'xtatilishidan 30 (o'ttiz) kun oldin Bankning rasmiy veb-sayti yoki mobil ilovasi orqali xabardor qilinishi kerak. Ushbu Ofertani tasdiqlash orqali Qarz oluvchi ushbu shartga rozi ekanligini tasdiqlaydi.

7.7. Kredit limiti kredit karta summasi miqdorida belgilanadi va kredit karta mablag'laridan foydalanilgan qismiga kamaytirilib, so'ndirilgan asosiy qarz qismiga tiklab boriladi.

7.8. Qarz oluvchining kredit layoqatliligi pasaygan yoki to'lov intizomiga amal qilinmagani aniqlangan taqdirda, kredit limiti kamaytirilishi mumkin. Agar qarz oluvchi tomonidan muddati 30 dan 60 kungacha bo'lgan muddati o'tgan qarzdorlik vujudga kelsa, kredit limitining foydalanilmagan qoldig'i bloklanadi va uni sarflash uchun mavjud bo'lmaydi. Agar qarz oluvchi 7.10-bandga muvofiq to'liq qarzni to'lasa, blokirovkadan chiqarish mumkin. Agar to'lov muddati 60 kundan ortiq kechiksa, kredit limiti bloklanadi va uni qayta tiklab bo'lmaydi/yangilab bo'lmaydi. Bank 7.14-bandga muvofiq Oferta shartlarini joylashtirish orqali limit mavjud bo'lmagan kechikish kunlari sonini o'zgartirishga haqli.

7.9. Agar olingan mablag'lar muddati o'tgan qarzni (asosiy qarz, foizlar va boshqalar) qoplash uchun etarli bo'lsa, kredit karta qarzi quyidagi tartibda to'lanadi:

- texnik overdraft miqdori (mavjud bo'lsa);
- jarimalar va jarimalar;
- muddati o'tgan foizlar;
- muddati o'tgan asosiy qarz summasi;
- foizlar;
- qarzning asosiy summasi.

7.10. Agar olingan mablag'lar muddati o'tgan qarzni (asosiy qarz, foizlar va boshqalar) qoplash uchun etarli bo'lmasa, kredit karta qarzi quyidagi tartibda to'lanadi:

- asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarz summasi;
- foizlar bilan muddati o'tgan qarz summasi;
- joriy qarz miqdori;
- joriy foizlar miqdori;
- jarimalar va jarimalar;
- bankning qarzni to'lash bilan bog'liq boshqa xarajatlari.

7.11. Kredit limitini so'ndirish uchun to'lovlar ushbu shartnoma tuzilgan kundan boshlab quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- Minimal to'lovni so'ndirish — minimal to'lov har oyning 1-kunidan boshlab to'lov uchun taqdim qilinadi.

Har oyning 1-kunidan to 20-kuniga qadar qarz oluvchiga ixtiyoriy ravishda qaytarish imkoniyati taqdim etiladi. Agar qarz oluvchi ushbu davr ichida ixtiyoriy to'lovni amalga oshirmagan taqdirda, to'lov 20-sanada avtomatik tarzda yechib olinadi. Agar Qarz oluvchining hisobvaraqlarida mablag' yetarli bo'lmasa, ushbu to'lov muddati o'tgan hisob raqamga o'tkaziladi va shu kundan boshlab to'liq to'langunga qadar avtomatik ravishda kuniga bir necha marta mavjud qarzdorlikni so'ndirish uchun mablag' yechib olinadi.

7.12. Foizlar, penyalari va jarimalar miqdori yiliga olingan qarz miqdorining yarmidan ko'p bo'lmasligi zarur.

7.13. Qarz oluvchi shu bilan Bank o'z xohishiga ko'ra, kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin tegishli ma'lumotlarni Bank veb-saytiga joylashtirish orqali Qarz oluvchini oldindan xabardor qilgan xolda quyidagilarni o'zgartirishi mumkinligiga o'z roziligini bildiradi, shu jumladan:

- Bank Tariflariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish: Qarz oluvchiga xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq komission va boshqa to'lovlarni to'lash miqdori, tartibi va shartlarini o'zgartirish;
- Mazkur Ofertaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.

8. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

8.1. Qarz oluvchining javobgarligi:

8.1.1. Kredit kartaning asosiy tani o'z vaqtida to'lanmaganda va bu holat bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik shakllanganda, Qarz oluvchi bankka kechiktirilgan har bir kun uchun muddati o'tgan qarzdorlikning 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi.

8.1.2. Hisoblangan foizlar o'z vaqtida to'lanmagan bo'lsa va ular bo'yicha muddati o'tgan qarzlari shakllangan bo'lsa Qarz oluvchi bankka kechiktirilgan har bir kun uchun, muddati o'tgan qarzdorlikning 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi.

8.1.3. Qarz oluvchi bankka soxta va yolg'on ma'lumotlar va hujjatlar taqdim etganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

8.1.4. O'z rekvizitlari (pasport ma'lumotlari) va mobil telefon raqami hamda mazkur shartnomaning 4.1.6 hamda 10.5-bandlardagi ma'lumotlarning o'zgarganligi to'g'risida ma'lumotlarni o'z vaqtida xabar bermasligi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlar uchun qarz oluvchi javobgar bo'ladi.

8.1.5. Mazkur shartnoma shartlari buzilgan taqdirda, bankka yetkazilgan zararni to'liq to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi va to'laydi.

8.1.6. KK foydalanuvchisi/Saqlovchisi PIN-kodini boshqa shaxsga bildirgan bo'lsa, ushbu karta orqali amalga oshirilgan barcha operatsiyalar uchun KK foydalanuvchisi/Saqlovchisi javobgardir.

8.1.7. KHga xato kiritilgan pul mablag'larini qaytarmaganlik uchun – O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.

8.1.8. KK foydalanuvchisi bankka taqdim etiladigan barcha ma'lumotning haqqoniyligi uchun to'liq javobgar.

8.1.9. KK foydalanuvchisi tarafidan shartnoma bekor qilingan taqdirda, u shartnoma bekor qilinishiga qadar amalga oshirilgan har qanday tranzaksiyalar yuzasidan va shartnoma bekor qilingandan so'ng KK Bankga o'z vaqtida qaytarilmagan holatda to'liq javobgar bo'ladi.

8.1.10. Bank qonunchilik hujjatlarida o'rnatilgan bank kartasi bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish muddatlari buzilgan taqdirda, u muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun muddati o'tgan to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, biroq muddati o'tgan to'lov summasining 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'lash.

8.1.11. Karta xisob raqami bo'yicha xato amalga oshirilgan operatsiyalarda Bank javobgarligi xato amalga oshirilgan operatsiyani to'g'irlash amaliyoti bilan cheklanadi.

8.2. Bankning javobgarligi:

8.2.1. Shartnomada belgilangan summa o'z vaqtida ajratilmagan hollarda, Bank Qarz oluvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun muddati o'tgan summaning 0,1% miqdorida penya to'laydi, biroq kechiktirilgan summaning 10 foizidan ortmagan miqdorda.

8.2.2. Bank Qarz oluvchining ehtiyotsizligi natijasida SHIR (PIN) va boshqa kod/parollari uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lib qolishi oqibatida ajratilgan kredit kartalar uchun javobgar emas.

8.2.3. Shartnoma bo'yicha hisoblangan jarima va penyalarni to'lash tomonlarni shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

8.2.4. Bank qonunchilik hujjatlarida o'rnatilgan KK bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish muddatlari buzilgan taqdirda, u muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun muddati o'tgan to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, biroq muddati o'tgan to'lov summasining 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'lash.

8.2.5. KH bo'yicha xato amalga oshirilgan operatsiyalarda Bank javobgarligi xato amalga oshirilgan operatsiyani bekor qilish bilan cheklanadi.

8.2.6. Bank quyidagi hollarda KK foydalanuvchisi oldida javobgar bo'lmaydi:

- a) KK foydalanuvchisi/Saqlovchisi tomonidan qonunchilikka zid harakatlar sodir etilgan taqdirda;

- b) agar KK yo'qolishi va/yoki PIN-kod oshkor etilishi KK foydalanuvchisining ehtiyotsizligi yoki KK bilan ehtiyotsiz muomalasi tufayli yoki mazkur Shartnomada nazarda tutilgan himoya choralari buzilishi oqibatida yuz bergan bo'lsa;
- c) KKlari orqali o'tkazilgan tranzaksiyalarga;
- d) KK Foydalanuvchisi/Saqlovchi tomonidan noto'g'ri ma'lumotlar bo'yicha uchinchi shaxsga mustaqil ravishda pul mablag'ini o'tkazganda yoki foydalanuvchisining/Saqlovchining roziligi bilan pul mablag'ini o'tkazish natijasida uchinchi shaxsning firibgarlik harakatlariga;
- e) mojaroviy holat yuzaga kelishi oqibatida ya'ni nazoratdan tashqari doirada bo'lishi, tashqi to'lov tizimining to'xtab qolishi, hisob-kitoblar, qayta ishlash va ma'lumotlarni uzatish bilan bog'liq bo'lganda;
- f) uchinchi tomonning KKga xizmat ko'rsatishdan voz kechishi;
- g) KK bo'yicha xarid qilingan tovarlar va xizmatlarning sifati;
- h) uchinchi tomon tarafidan belgilangan, KK foydalanuvchisining manfaatlariga dahl qilishi mumkin bo'lgan KK bo'yicha limitlar, cheklashlar va qo'shimcha haqlar;
- i) Bank yo'qolgan KKni Stop-Listga qo'yish haqida o'z vaqtida ogohlantirmaslikning oqibatlari;
- j) KK foydalanuvchisi/Saqlovchisi tomonidan CVN (CVV/CVC) kodlarni uchinchi shaxsga berilganda;
- k) Bank KK yo'qolganligi yoki o'g'irlanganligi yoxud KKdan uchinchi shaxslar foydalanganligi natijasida mijozga yetkazilgan har qanday moliyaviy zararlar uchun ham javobgar hisoblanmaydi.

8.2.7. Bank quyidagi hollarda jarima to'lashdan ozod qilinadi:

- a) fors – major holatlari, shu jumladan, banklararo elektron to'lovlar tizimida ro'y berishi mumkin bo'lgan uzilish holatlarida;
- b) bank mijozi tomonidan amaldagi qonunlarda belgilangan talablarga mos kelmaydigan to'lov hujjatlari taqdim qilinganda;
- c) qonunlarda belgilangan tartibga bank yoki mijoz KH bo'yicha operatsiyalar to'xtatilganda yoki bekor qilinganda.

8.2.8. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi amaldagi qonunchilikka muvofiq tartibga solinadi.

8.2.9. KK foydalanuvchisi KKsi yo'qolganligi yoki bank kartasidan ruxsatsiz foydalanilganligi to'g'risida Bankni xabardor qilmagan taqdirda barcha tavakkalchiliklar KK foydalanuvchisining zimmasida bo'ladi.

9. MAXFIYLIK

9.1. Ushbu Shartnomani tuzish va bajarish jarayonida Tomonlar taqdim etgan barcha ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi.

9.2. Tomonlar ushbu shartnomani tuzish va undan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish jarayonida olingan maxfiy ma'lumotlarni, Tomonning tijorat siri hisoblanuvchi ma'lumotlarni boshqa Tomonning yozma rozilgisiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladilar.

Ushbu talab shartnomaning amal qilish muddati davomida va uning amal qilish muddati tugaganidan keyin 3 yil davomida amal qiladi.

9.3. Ushbu talabni bajarmaganlikda aybdor bo'lgan Tomon boshqa Tomonga buning natijasida yetkazilgan zararni to'liq hajmda qoplab beradi.

10. ALOHIDA SHARTLAR, VAKOLAT-KAFOLAT VA XABARNOMALAR

10.1. Ushbu Shartnomani tuzish orqali ushbu ofertada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 02.07.2019-yildagi "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-son Qonuni qoidalariga muvofiq, Qarz oluvchi bankka rozilik va saqlash va qayta ishlash huquqini, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlar bilan bog'liq avtomatlashtirilgan ma'lumotlarni, shu jumladan to'plash, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, qo'shish, foydalanish, ta'minlash, tarqatish, uzatish, shaxsiylashtirish va yo'q qilish huquqini beradi. Qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlari, shuningdek, ushbu Ofertada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish uchun Shaxsiy ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga o'tkazishga roziligini beradi. Qarz oluvchi quyidagi hollarda Qarz oluvchi bilan suhbatlarni yozib olishga rozilik beradi: Qarz oluvchi manfaatdor bo'lgan Qarz oluvchi uchun foydali bo'lgan Shartnomalarni tuzish va bajarilishini ta'minlashda; Qarz oluvchining Shartnomada nazarda tutilgan huquq va majburiyatlarini bajarishini ta'minlashda, ularning bajarilishini talab qilishda va qarzni undirishda; ma'lumotlarni tekshirish, shu jumladan firibgarlikning oldini olish uchun; Qarz oluvchiga, uning ish beruvchisiga va boshqa uchinchi shaxslarga Shartnomaning bajarilishi bilan bog'liq ma'lumotlarni taqdim etishda.

10.2. Ushbu bilan Qarz oluvchi kredit karta to'lovi bo'yicha telefon qo'ng'iroqlari qilinishiga, SMS-xabarnomalarni uyali telefon raqamlariga, shuningdek Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan boshqa manzillarga (rekvizitlarga), barcha aloqa vositalaridan foydalangan holda yuborilishiga qaytarib bo'lmaydigan, so'zsiz rozilik beradi.

10.3. Ushbu bilan Qarz oluvchi Bankka quyidagi harakatlarni amalga oshirish uchun qaytarib bo'lmaydigan, so'zsiz huquq va rozilik beradi:

- bank tomonidan Kredit ahborot tahliliy markaziga shartnoma shartlariga doir ma'lumotlarni taqdim etish;
- Qarz oluvchiga, uning turmush o'rtog'iga, shuningdek uning qarindoshlariga, qarz oluvchining ish beruvchisiga qarz oluvchining mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarini bajarish yuzasidan Bankka ma'lum bo'lgan manzillarga (rekvizitlarga), telefon raqamlariga qo'ng'iroq qilish, xatlar, elektron pochta xabarlari va SMS xabarlarini yuborish;
- Qarz oluvchi, uning turmush o'rtog'i, shuningdek uning qarindoshlari, qarz oluvchining ish beruvchilari bilan mazkur shartnoma bo'yicha Qarz oluvchining majburiyatlarini bajarish masalalari yuzasidan muzokaralar (uchrashuvlar) o'tkazish;
- Qarz oluvchining ish beruvchilaridan daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni so'rash, kredit karta bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun Qarz oluvchiga tegishli mablag'larni (ish haqi, pensiya va boshqalar) yo'naltirish talabi bilan ish beruvchilarga murojaat qilish.

Shu bilan birga, Bank tomonidan yuqoridagi harakatlarni amalga oshirishi Bank sirini oshkor qilish hisoblanmaydi.

10.4. Ushbu shartnomadan kelib chiqadigan barcha savollar bo'yicha Qarz oluvchi bank bilan quyidagi aloqa kanallari orqali bog'lanishi mumkin:

- a) Call-markaz raqamlari: 08001200200, qisqa raqam 1256 (to'lov mobil operator tarifiga muvofiq olinadi);
- b) elektron pochta orqali: info@hamkorbank.uz; muloqot@hamkorbank.uz.

10.5. Bank mazkur shartnoma yuzasidan kelib chiqadigan har qanday savollar yuzasidan qarz oluvchiga quyidagi aloqa kanallari orqali bog'lanishi va ma'lumot yuborishi mumkin:

- a) Qarz oluvchining mobil ilova orqali ro'yxatdan o'tgan mobil telefonning raqamiga;
- b) Qarz oluvchi tomonidan taqdim qilingan manzillarga;

10.6. Bank tomonidan yuborilgan SMS-xabarlar va/yoki qilingan qo'ng'iroqlar, Qarz oluvchi tomonidan shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik to'g'risidagi bildirishnomalar qarzni to'lash bo'yicha o'tkazilgan profilaktik

chora-tadbirlar hisoblanadi hamda sud va boshqa organlarga asos sifatida taqdim etilishi mumkin.

11. FORS-MAJOR HOLATLARI

11.1. Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari - bu tomonlarning irodasi, xohishi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar), ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar), xalqaro, banklararo va bankning elektron to'lov hamda ta'minot tizimidagi nosozlik, bankning dasturiy ta'minot tizimiga qilingan taxdid (uchinchi shaxslar tomonidan qilingan xujumlar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlardir.

11.2. Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtda taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnoma bo'yicha o'zaro majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'ladilar.

11.3. Yuzaga kelgan fors-major holatlari haqida hamda ushbu holatlar yakunlanganligi haqida taraf ushbu holatlar yuzaga kelgan yoki bartaraf etilgan vaqtdan boshlab, 3 bank ish kuni ichida bu haqda ikkinchi tarafni yozma ravishda xabardor qilishi lozim.

11.4. Fors-major holatlari yuzaga kelganligi yoki bartaraf etilganligi to'g'risidagi xabarnomalar har qanday mavjud aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin.

11.5. Fors-major holatlari 30 kun mobaynida bartaraf etilmagan taqdirda taraflar ushbu shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga haqli bo'ladilar.

11.6. Shu bilan birga, Tomonlar koronavirus infeksiyasi (COVID-19) pandemiyasi va (yoki) boshqa har qanday epidemiyalar yoki kasalliklarning avj olishi, shuningdek, pandemiya munosabati bilan joriy qilingan cheklov choralari (shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida karantin joriy etilganida) Shartnomaga muvofiq "Kuch bilan yengib bo'lmaydigan holat" (fors-major) deb e'tirof etilishi mumkin emasligini tushunadilar va rozilik bildiradilar va Tomonlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 333-moddasi 3-qismiga muvofiq, fors-major holatlari qoidalarini qo'llanilishini, uning ixtiyoriyligini hisobga olgan holda, istisno qiladilar. Umumiy shartlarning ushbu bandi bunday holatlarni Tomonlar oldindan ko'ra olmasligi va/yoki oqilona choralar bilan oldini ola olmasligi nuqtayi nazaridan davlat organlari Shartnoma bo'yicha Tomonlar o'z majburiyatlarini to'g'ri bajarishlari uchun cheklashlarni belgilovchi harakatlar yoki qarorlar qabul qilgan taqdirda ham qo'llaniladi.

12. KORRUPSIYAGA QARSHI HARAkatLAR

12.1. Tomonlar va ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarish uchun va boshqa tomon qarorlarni qabul qilishida to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita pul, qimmatbaho buyumlar va xizmatlarni taklif qilishlari, berishlari taqiqlanadi.

12.2. Tomonlar va ularning filiallari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarining bajarilishiga va boshqa tomonning qaroriga ta'sir qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita pul, qimmatbaho buyumlar yoki xizmatlarni qabul qilishni rad etishga majburdirlar.

12.3. Agar tomonlar ushbu shartnoma shartlarini bajarish jarayonida korrupsiya hatti-harakatlari to'g'risida ma'lumot, dalillar yoki shubhalarga ega bo'lsa, bu tomon boshqa tomonni bu haqda yozma ravishda xabardor qilishga majburdir.

12.4. Xabar qilingan tomon korrupsion faoliyat amalga oshirilmaganligi tasdiqlanmaguncha ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turishga haqli.

12.5. Tomonlar boshqa Tomonning vakili, xodimi va/yoki affillangan shaxslarining arizasi natijasida yetkazilgan zararni pora berish orqali qoplash kabi hatti-harakatlarni amalga oshirganligi uchun javobgarlikni o'z zimmalariga oladilar.

13. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

13.1. Tomonlar ushbu shartnomani bajarish bilan bog'liq yuzaga kelgan barcha nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal qiladilar.

13.2. Agar nizoni o'zaro hal qilishning iloji bo'lmasa, talab yoki ogohlantirish xatini olgan tomon talab yoki ogohlantirish xatida ko'rsatilgan muddatda javob berishi shart.

13.3. Bank Qarz oluvchining qarzi mavjudligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan barcha mumkin bo'lgan aloqa kanallari, shu jumladan, ular bilan cheklanmagan holda: talab yoki ogohlantirish xatini elektron aloqa kanallari orqali yuborish, shaxsan yetkazib berish yoki elektron pochta orqali jo'natish, pochta xizmatidan buyurtma asosidagi/oddiy xat orqali jo'natish hamda mazkur shartnomaning 9.5-bandidagi usullar orqali xabar beradi.

13.4. Tinch yo'l bilan hal qilinmagan nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq bank tarmog'i joylashgan hududdagi tegishli sudda qonunchilikda belgilangan tartibida hal qilinadi.

14. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, UNI O'ZGARTISH YOKI BEKOR QILISH TARTIBI, SHUNINGDEK SHARTNOMANING BOSHQA SHARTLARI

14.1. Mazkur shartnoma (umumiy shartlar) mijoz ushbu shartnoma matni bilan tanishib chiqqan va "Hamkorbank" ATB mobil ilovasida rozilik (aksept) bergan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi, ya'ni Qarz oluvchi ushbu Umumiy shartlarni qabul qilgandan so'ng ushbu Ofertada nazarda tutilgan shartlar bo'yicha Shartnoma tuzilgan hisoblanadi va agar bu sana O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ish kuni bo'lmasa, undan keyingi ish kuni ushbu shartnoma imzolangan sana hisoblanadi. Mazkur umumiy shartlar kredit karta berishning individual shartlariga nisbatan ustunroq kuchga ega hisoblanadi, agar mazkur shartlar bilan kredit karta berishning individual shartlari o'rtasida tafovut (kolliziya) vujudga kelsa taraflar mazkur umumiy shartlarga asosan ish ko'radilar. Bunda mazkur shartnomaning 2.8.-bandida nazarda tutilgan holatlarni yuz berishi mazkur shartnomani amal qilishiga ta'sir qilmaydi.

14.2. Ushbu shartnoma tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

14.3. Jismoniy shaxslarga masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma bekor qilingan taqdirda, Bank kredit bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turadi. Mavjud mablag'lar qoldig'i Qarz oluvchining tegishli arizasi asosida boshqa hisob raqamiga o'tkaziladi.

14.4. Bank ushbu shartnoma shartlarini amaldagi qonunchilik doirasida bir tomonlama tartibda o'zgartirishga haqli, o'zgarishlar kuchga kirishidan 10 kun oldin o'zgartirishlarni bankning www.hamkorbank.uz saytiga joylashtirishi lozim.

14.5. Ushbu shartnomaning 5.2.6 va 11.5-bandlarida ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelganda shartnoma muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu Shartnoma qonun hujjatlariga muvofiq yoki ushbu Shartnoma shartlari asosida bekor qilinganda, kredit karta berishning individual shartlari ham bekor qilingan hisoblanadi.

14.6. Bank mijozni 30 kun oldin xabardor qilgan holda, Shartnomani bekor qilishi mumkin.

14.7. Mijoz tomonidan mazkur shartnoma talablari buzilgan taqdirda shartnoma bank tomonidan bir tomonlama bekor qilinadi va mijozning kredit kartasiga xizmat ko'rsatish to'xtatiladi.

14.8. Agar ushbu oferta shartnomasida nazarda tutilgan xizmatlardan foydalangan holda shubhali operatsiyalarni amalga oshirish holatlari aniqlansa, Bank oferta shartnomasi bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni 30 kunga to'xtatib qo'yishga haqli.

14.9. Agar oferta shartnomasi xizmatlaridan jinoyat yo'li bilan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida foydalanilganligi to'g'risida asosli shubhalar mavjud bo'lsa, shartnoma bank tomonidan belgilangan tartibda bekor qilinadi.

14.10. Bank O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishga qarshi kurashish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq zarur hujjatlar va ma'lumotlar mavjud bo'lmagan taqdirda, ushbu shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli.

15. "HAMKORBANK" ATB RYEKVIZITLARI

«Hamkorbank ATB

Manzil: 170119, Andijon sh., Bobur ko'chasi, 85-uy

«Hamkorbank ATB OPERU

MFO: 00083, STIR: 200 242 936, OKED: 64190

Tel.: 1256 yoki 0 800 1 200 200

Elektron pochta: info@hamkorbank.uz

Ushbu kredit karta shartnomasini imzolash orqali men matn bilan to'liq tanishib chiqqanligimni tasdiqlayman va unda nazarda tutilgan barcha shartlarga roziligimni bildiraman.